



## PALEODEMOGRAFIYA VA U HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6605015>

**A.Abdurahmonov**

*FarDU magistranti*

**Annotasiya:** *Mazkur maqolada tarixiy demografiyaning bo‘limi hisoblangan paleodemografiya tushunchasi va uning tadqiqot maqsadlari hamda predmeti to‘g‘risidagi ayrim fikr-mulohazalar tahlil etilgan.*

**Kalit so‘z va iboralar:** *Paleodemografiya, demografiya, fiziologik va psixologik xususiyatlar, jinsiy tarkib, tug‘ilish va o‘lim, “Hayot jadvali”.*

Paleodemografiya - qadimgi odamlar jamoasida sodir bo‘ladigan demografik jarayonlarni o‘rganuvchi ilmiy fan, tarixiy demografiyaning bo‘limidir. Tarixiy demografiyadan farqli ravishda paleodemografiya yozma manbalardan foydalanmaydi[9]. Uning manbalariga quyidagilar kiradi:

- Arxeologik tadqiqotlar natijasida tadqiq qilingan manzilgohlarni miqdoriy o‘rganish, ya’ni qadimgi aholi tomonidan egallangan hududlar zichligini ko‘rish;
- Qadimgi odamlarning oziq-ovqat qoldiqlarini o‘rganish;
- Nekropollarda qazilgan skeletlarning antropologik tahlili;
- Genetik izlanishlar va tadqiqotlar[4].

Paleodemografiyaning ta’rifi va o‘rganish sohalariga o‘tishdan oldin, demografiya nima ekanligini tushuntirib berish o‘rinli bo‘ladi.

«Demografiya» - ikki yunon so‘zlarining qo‘shilishidan iborat bo‘lib, «demos» - xalq, aholi, «grafiya» - tasvirlash, yozish, o‘rganish ya’ni, «xalq haqida yozmoq», yoki «aholini sharhlash» ma’nosini anglatadi[1:5]. Biroq demografiya fani faqat sharhlash bilan chegaralanib qolmay, balki uning o‘rganish doirasi bir muncha keng va chuqurdir.

Demografiya har yili turli sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bogliq holda o‘rganadigan fan[8:248].

Ma’lumki, qadimgi davrlardan oq aholini ro‘yxatga olish zarurati tug‘ilgan. To‘g‘ri, ko‘hna Yunoniston, Rim, Xitoyda, keyinchalik O‘rta Osiyoda aholishunoslik to‘g‘risidagi bilimlar va tasavvurlar mavhum, tizimsiz bo‘lganligi tushunarlidir. Ayrim mamlakatlarda oilalar, tug‘ilishni tartibga solishga harakat



qilib ko‘rilgan. O‘sha davrlardayoq mutafakkirlar aholi soni bilan inson rivojlanishi o‘rtasidagi aloqadorlikka e‘tibor qaratganlar.

Konfutsiy (taxminan mil. avv. 551–479 yillar) ishlov berilidigon ekin maydonlari bilan aholi soni o‘rtasidagi eng maqbul nisbatni aniqlashga harakat qilib ko‘rgan. Uning fikricha, bu nisbotning buzilishi quyidagi sabablarga olib kelishi mumkin:

- aholi soni kam bo‘lsa, ekinzorlarga ishlov berish yomonlashadi va dehqonlar soliq tulashtan bosh tortadi;
- aholi nixoyatda zich bo‘lsa, odamlarning qashshoqlashishi, bekorchilarning ko‘payishi sababli ijtimoiy muammolar kuchayadi.

Bundan aholi soni davlat tomonidan tartibga solinishi kerakligi hamda odamlarni aholi zich mintaqalardan aholi kam bo‘lgan hududlarga ko‘chirish masalasini hal qilish talab etilishi kabi xulosalar chiqarilgan.

Platon (mil. avv. 428–347 yillar) ideal davlat to‘g‘risidagi ta‘limotida erkin fuqarosi 5040 nafar bo‘lgan davlat ana shunday modelga javob berishini ko‘rsatgan. U nikoh munosabatlarida ham muayyan tartib o‘rnatishni taklif etgan, jumladan, erkaklar faqat 30 yoshdan 55 yoshgacha farzand ko‘rishi maqsadga muvofiqligini asoslagan. Platon shunday yozadi: “nikohlar sonini belgilashni hamda urush, kasallanish va hakerozolarni hisobga olgan holda erkaklar soni imkoniyat darajasida muqim bo‘lishi, davlat imkoniyati boricha ham kattalashmasligi ham, kichiklashmasligi xam choralarini ko‘rishni hukmdorlardan so‘raymiz”.

Aristotel (mil. avv. 384–322 yillar) ham erkin fuqarolari kamsonli bo‘lgan davlatni ideal deb hisoblagan. Uning fikricha, fuqarolar sonining kam bo‘lishi ijtimoiy uyg‘unlikni ta‘minlaydi, aholi haddan tashqari ko‘p bo‘lganda esa bunga erishish mumkin emas. Aholining ortiqchaligi ular tomonidan e‘tirozlar bildirilishi hamda jinoyatlar soni ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga aholi ko‘paysa, fuqarolarning bir qismi yerga ega bo‘lmasdan qashshoqlashadi[5:21-22].

Demografiyaning fan sifatida paydo bo‘lishi, asosan XVII asrning 2-yarmi (1662-y)dan angliyalik olim J.Graunt (1620–1674) tadqiqotlari bilan bog‘liqdir. Ana shu davrda Angliyada vabo va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalib, aholi o‘rtasida o‘lim hollari nihoyatda ko‘payib ketgan. Shu bois Londonda har hafta o‘lim haqida byulletenlar, ya‘ni maxsus ma‘lumotnomalar chop etilib, aholiga tarqatilgan. O‘z salomatliklarini saqlash maqsadida, mazkur ma‘lumotlarni juda ko‘p fuqarolar o‘qigan. Angliyalik savdogar olim J.Graunt Londonda tug‘ilish va o‘lim haqidagi 80 yillik ma‘lumotlarni o‘rganib chiqqan va 1662-yili o‘zining 90



betdan iborat «O‘lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatish natijalari. Ko‘rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, o‘shishi va boshqa o‘zgarishlari xususida London fuqarosi Jon Grauntning asari» («Естественные и политические наблюдения над списками умерших») kitobini yozgan. Kitob juda uzun nomlangan bo‘lib, o‘z oldiga keng qamrovli ijtimoiy hodisalarni maqsad qilib qo‘ygan[11]. Shu bilan birga, asarda demografik jarayonlarning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarning ta‘sirini o‘rganishga harakat qilingan. Tadqiqotni muallifning zamondoshlari yuksak baholashgan, lekin ular keyingi davr olimlaridan farqli o‘laroq ushbu asarni aholi dinamikasi muammolarining tahlili sifatida ko‘rib chiqishmagan. Demografiyaga tamal toshi qo‘ygan shaxs sifatida J.Graunt XIX–XX asrlarda demografiya aholi statistikasi, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosatshunoslik fanlarining gurkirab rivojlanayotgan davrida tan olingan.

J.Graunt asarining fundamental tahlili M.V.Ptuxa tomonidan o‘tkazilgan, lekin uning ushbu masala bo‘yicha qarashlari ma‘lum bir ma‘noda o‘zgarishlarga ham uchradi. 1930-yildagi Aholishunoslik bo‘yicha xalqaro kongressda u J.Grauntning demografiyaning asoschisi ekanligini aytib o‘tgan, lekin keyingi asarlarida XVII asr statistikasining asoschilari sifatida uch kishini – J.Graunt, V.Petti va E.Gallelarni e‘tirof etgan.

Shunga qaramasdan, hozirgacha demografiyaning rivojlanish davrini hisoblash J.Grauntdan boshlanadi, 1963-yilda B.Urlanising J.Graunt tavalludining 300 yilligiga bag‘ishlanib chop etilgan maqolasida yozilishicha, «o‘tgan asrlar tumanlari orasida qolib ketgan» boshqa fanlardan farqli o‘laroq, demografiya fanining vujudga kelish vaqtini aniq belgilash mumkin va J.Graunt «Demografiya fanining otasi» hisoblanadi[1:14-15].

“Demografiya” terminini 1855-yilda fransuz olimi A.Giyyar qo‘llagan. U 1855-yilda Parijda chop etilgan “Inson statistikasi unsurlari yoki nisbiy demografiya” kitobida demografiyaga insonning tabiiy va ijtimoiy tarixi yoki aholini, uning o‘zgarishini hamda jismoniy, fuqaroviy va aqloqiy shart-sharoitlari o‘zgarishini matematika usullarida o‘rganish, deb ta‘rif bergan[3].

1883-yilda demografiya va gigiyena bo‘yicha xalqaro kongressda fanning yakuniy nomi tasdiqlandi. Bu vaqtda J.Bertilon (1851–1922 yy.) va boshqa olimlarning ishlariga muvofiq yagona to‘xtamga kelindi va demografiya statistik usullar yordamida aholini tavsiflovchi mustaqil fan sifatida tan olindi[1:21]. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida demografiya fan tushunchasi keng tarqaldi. O‘zbekistonda, asosan 1960-yildan qo‘llanila boshladi.



Demografiyada asosiy kuzatuv birligi – inson hisoblanadi. Inson hayoti davomida uning fiziologik va psixologik xususiyatlari, ma'lumotlilik, darajasi, oilaviy polati, kasbi-kori, malakasi ijtimoiy guruhi, yashash joyi, til bilish kabi imkoniyatlari o'zgarib boradi. Ana shu alohida inson hayotida ro'y bergan o'zgarishlar yig'indisi umuman aholi hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o'zgarishlarga olib keladi. Nikohga kirish natijasida, oilalar soni oshib boradi, yolg'izlar, bo'ydoqlar soni esa kamayadi. Nikohning bekor etilishi, ya'ni, ajralish jarayoni esa, aholi tarkibida tugalmas oilalarning va bevalar salmog'ining ko'payishiga sabab bo'ladi. Inson dunyoga kelar ekan ma'lum davr yashaydi. Ana shu davr moboynda u ulg'ayib boradi. Go'daklik davridan bolalikka, o'smirlik, yoshlik, o'rta yoshlik, yetuklik davrlariga o'tadi. Har bir o'quv yili tugashi bilan aholi tarkibida ma'lumotlilik soni oshib boradi. Ana shu tarzda shaxs hayotidagi o'zgarishlar aholi guruhidagi o'zgarishlarga olib keladi[5].

Insonlarning bir hududdan ikkinchi bir hududga ko'chib o'tishi – migratsiya ham ushbu hududlar aholi soniga va tarkibiga ta'sir etadi.

Ma'lumki, jamiyatda har doim qandaydir sabablarga ko'ra aholining bir qismi hayotdan ko'z yumadi, ya'ni vafot etadi. Yana bir qism aholi esa, dunyoga keladi. Jamiyatdagi o'lgan aholi o'rni, yangi tug'ilganlar hisobiga to'lib boradi, avlodlar almashadi. Ana shu jarayon aholi takror barpo bo'lishining asosisini tashkil etadi.

Biror bir hududda, ma'lum davrdagi aholi tarkibi, o'tgan davrdagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi, keyingi davrdagi aholi takror barpo bo'lishining esa zamini hisoblanadi. Demak, aholi takror barpo bo'lishi jamiyat taraqqiyoti davomidagi doimiy, murakkab jarayondir.

Aholining takror barpo bo'lishi natijasida aholi soni va uning yosh – jinsiy tarkibi muntazam o'zgarib turadi. Yangi tutilgan bolalar jinsi aholi jinsiy tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. O'lganlar soni esa, aholi yosh tarkibiga ta'sir etadi. Aholi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar jamiyatda ma'lum ijtimoiy muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aholining takror barpo bo'lish jarayoni esa, o'z navbatida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shu bois aholining takror barpo bo'lish jarayoni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga, qonuniyatlariga egadir. Demak, demografiyaning asosiy predmeti aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarining tahlili ho'soblanadi[7:20]. Demografiya alohida fan sifatida, aholining miqdoriy va sifatiiy xususiyatlarining mukammal tahlil etadi.

Xulosa qilib aytganda, demografiya zamon va makonga bog'liq holda zamonaviy jamiyatlarning nostatsionar aholi tuzilmalarini va hayot statistikasini



yaratsa, paleodemografiya qadimgi, ya'ni o'tgan zamon kishilari haqidagi ma'lumotlardan foydalanadi va demografiyadan farqli ravishda hozirgi dinamik jamiyatlarni emas, balki statik jamiyatlarning aholi tuzilmalarini ochib berishga harakat qiladi. U zamonaviy jamiyatlarning ma'lumotlaridan bugungi kunga qaraganda sodda va cheklangan sharoitlarda yashagan insoniyat jamiyatlarining rivojlanishini tushunish va qayta qurish uchun foydalanadi, bu antropologik tadqiqotlarning mantiqiy davomi, ya'ni an'anasidir.

Paleodemografik tadqiqotlarning maqsadi populyatsiyalarning ko'payishi va kamayishini, ularning vaqt va makonga ko'ra taqsimlanishini, jamoalararo munosabatlarini va salomatlik holatini aniqlashdan iborat. Yosh, jins, umr ko'rish davomiyligi, tug'ilish, o'lim ko'rsatkichlari va bu ko'rsatkichlarning skelet (jasad) populyatsiyalarida ma'lum yosh guruhlariga taqsimlanishi kabi raqamli ma'lumotlarni taqdim etish muhimdir. Buning uchun ishlatiladigan eng muhim vositalardan biri "hayot jadvali" dir. Bu usul yosh va o'lim darajasi jinsga qarab belgilanadigan kichik guruhlardagi aholi haqida umumiy demografik tahlillar o'tkazish imkonini bersa-da, katta guruhlardagi butun aholi haqida ma'lumot bera oladigan muhim tadqiqot usuli hisoblanadi. Hayot jadvalini qo'llashda doimiy sonlarni ifodalovchi populyatsiyalarga afzallik beriladi, barqaror populyatsiyalar ko'chishi mumkin va o'lim-tug'ilish tenglamasi nolga teng. Ushbu tenglama paleodemografiyada o'lim ko'rsatkichlarini hisoblashda qo'llaniladi.

Hayot jadvalida: o'lim ehtimoli, omon qolish ehtimoli, o'lganlar soni, yoshga qarab o'lim darajasi, tirik qolganlar soni, umumiy yashagan yillar, shaxslarga ko'ra yashagan yillar soni, umr ko'rish davomiyligi, tug'ilishda omon qolish umidi, umumiy o'lim darajasi kabi statistik ma'lumotlar bo'ladi. Skelet populyatsiyasidagi demografik o'zgarish turlarining tafsilotlari bilan tushunish uchun hayot jadvalida ayollar, erkaklar, chaqaloq va bolalar uchun alohida e'tabor qaratilishi kerak. Shunday qilib, jamiyatning umumiy hayot jadvalini tuzish mumkin.

Paleodemografik tadqiqotlarda arxeologik va antropologik topilmalar birgalikda baholanishi kerak. Buning uchun

- 1) arxeologik qazishmalar va tahlillar;
- 2) anatomik va paleopatologik tahlil: o'lim yoshi, jinsni aniqlash, patologik holat;
- 3) demografik tahlil: tug'ilish va o'lim koeffitsienti, o'rtacha umr ko'rish;
- 4) jamiyatni tavsiflovchi qayta qurish: ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, ekologik muhit kabi savollarga javob berish kerak[6:70].



Kuzatish va tahlillarda “tabiiy tanlanish”ni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Tabiiy tanlanish differensial o‘lim va tug‘ilish koeffitsientlari sifatida namoyon bo‘ladi. O‘lim sabablari, masalan, istalmagan bolalarning o‘limi, baxtsiz hodisalar, urushlar madaniy faoliyatning bevosita natijalarini aks ettiradi. Biroq, qizamiq, gripp, shamollash kabi kasalliklar o‘troq jamoalarda intensiv ravishda uchraydigan va tabiiy tanlanishga bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan omillardir[2:429]<sup>1</sup>. Shunday qilib, jamoalarda omon qolishga muvaffaq bo‘lgan shaxslarning ko‘payishi va ularning umr ko‘rish davomiyligi oshishi ta’minlanadi

Arxeologiya, antropologiya, etnografiya va demografiya fanlarining o‘zaro to‘qnashuvi paleodemografiyaning asosini belgilaydi. Paleodemografiya uchun eng ko‘p axborot manbasi – bu paleoantropologiya ma’lumotlaridir. XIX asrda antropologlar odam skletiga qarab uning yoshi va jinsini aniqlashgan. Lekin, uzoq muddat davomida bu imkoniyatdan demografik jarayonlarni tavsiflashda foydalanilmagan, faqat aholining yosh va jinsiy tarkibi bo‘yicha XX asrning 30-yillaridagina sobiq Ittifoq, Frantsiya va Germaniya mamlakatlarida ilmiy maqolalar paydo bo‘lgan[10].

Xulosa qilib aytganda, paleodemografiya qadimgi kishilik jamiyatida sodir bo‘lgan demografik jarayonlarni o‘rganadigan demografiyaning bo‘limi hisoblanadi. Bu fanning ma’lumotlar bazasini qadimgi yozma hujjatlar, epitafiyalar, paleoantropologik (odam suyaklari qazilmalarining tahlil ma’lumotlari), arxeologik (insoniyatni moddiy va madaniy yodgorliklari qazilmalarining tadqiqot natijalari), etnoarxeologik (etnografik kuzatuvlar) ma’lumotlar tashkil etadi. Paleodemografik ma’lumotlar nafaqat jamiyat tarixini dastlabki bosqichlarining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi, balki uning sonlar dinamikasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar tavsifi xususida ham fikrlashga imkoniyat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya: O‘quv qo‘llanma. – T.: Noshir, 2011. – 296 b.
2. Angel J.L. The bases of paleodemography. American Journal of Physical Anthropology. 1969, No 30, pp. 427-438.
3. Guillard A. Elements de statistique humaine ou demographic compare. Paris, 1855.

---

<sup>1</sup> Angel J.L. The bases of paleodemography. American Journal of Physical Anthropology. 1969, No 30, pp. 427-438.



4. Williamson Sh, et al. Одновременный вывод отбора и роста популяции из паттернов вариации в геноме человека. Proc Natl Acad Sci USA. 2005.
5. Абдурахмонов К.Х. ва бошқалар. Демография. Дарслик. - Т.: "Iqtisodiyot", 2014. - 364 б.
6. Алексеев В.П. Палеодемография: содержание и результаты//Историческая демография: проблемы, суждения, задачи. 1989. - С. 63-90.
7. Веселкова И.Н. Теоретические основы демографии. // Демография: Учебник/ Под ред. Н.А. Волгина. - М., 2003. - 384 с.
8. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.3. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. - Б. 248.
9. <https://fr.wikipedia.org/wiki/Paléodémographie>
10. <https://demography.academic.ru/Палеодемография>
11. <https://www.stud24.ru/historical-figures/Дж. Граунт: его жизнь и роль в становлении демографии>